



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EISSN 2181-2187

6 (92) 2026

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:
М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
У.О. АБИДОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОИВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Д.Т. АШУРОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВА
А.С. ИЛЪЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Б.Б. ХАСАНОВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
Э.Б. ХАККУЛОВ
Г.С. ХОДЖИЕВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

6 (92)

2026
Апрель

www.bsmi.uz
https://newdaymedicine.com
E: ndmuz@mail.ru
Тел: +99890 8061882

Received: 20.05.2026, Accepted: 06.06.2026, Published: 10.06.2026

UDK 811.512.1(100):316.77

**O‘ZBEKISTON BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TIZIMIDA TIBBIY SAVODXONLIK
RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

Arslonova Nazira Anvar qizi <https://orcid.org/0009-0007-5594-071X>

e-mail: arslonbekarslonov4@gmail.com

"TURON ZARMED UNIVERSITETI" (Buxoro kampus)

200117, Bukharskaya oblast, Bukhara, ul. Kayuma Murtazaeva, 13A tel: +998 (97) 487-78-84 e-mail: info@zarmeduniver.com

✓ **Rezyume**

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston boshlang‘ich ta‘lim tizimida tibbiy savodxonlik (health literacy) elementlarining aks etish darajasi kontent tahlil asosida o‘rganildi. Tadqiqot obyekti sifatida 1–4 sinflar uchun mo‘ljallangan 38 ta darslik tahlil qilindi. Tibbiy savodxonlik komponentlari gigiyena, ovqatlanish, jismoniy faollik va kasalliklarning oldini olish yo‘nalishlari bo‘yicha baholandi. Natijalar darsliklarda mazkur elementlar mavjudligini, ammo ularning miqdoriy ulushi va mazmuniy chuqurligi sinflar kesimida notekis taqsimlanganligini ko‘rsatdi. Shuningdek, tibbiy savodxonlik komponentlarining asosan alohida mavzular doirasida berilgani, fanlararo integratsiya darajasining pastligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida boshlang‘ich ta‘limda tibbiy savodxonlikni tizimli rivojlantirishga qaratilgan integrativ yondashuv zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: tibbiy savodxonlik, boshlang‘ich ta‘lim, darsliklar tahlili, kontent tahlil, sog‘lom turmush tarzi, gigiyena, ovqatlanish, jismoniy faollik, profilaktika, fanlararo integratsiya

**ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ МЕДИЦИНСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В СИСТЕМЕ
НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА**

Арслонова Назира Анвар кизи <https://orcid.org/0009-0007-5594-071X>

e-mail: arslonbekarslonov4@gmail.com

«ТУРОН ЗАРМЕД УНИВЕРСИТЕТ» (Кампус в Бухаре)

200117, Бухарская область, г. Бухара, ул. Каюмы Муртазаева, 13А телефон: +998 (97) 487-78-84 e-mail: info@zarmeduniver.com

✓ **Резюме**

В данном исследовании на основе контент-анализа изучается степень отражения элементов медицинской грамотности в системе начального образования Узбекистана. В качестве объекта исследования проанализированы 38 учебника для 1–4 классов. Компоненты медицинской грамотности оценивались по следующим направлениям: гигиена, питание, физическая активность и профилактика заболеваний. Результаты показали, что данные элементы присутствуют в учебниках, однако их количественное распределение и содержательная глубина существенно различаются по классам. Кроме того, элементы медицинской грамотности представлены преимущественно в рамках отдельных тем, а уровень междисциплинарной интеграции остается низким. На основе полученных результатов обоснована необходимость разработки системного и интегративного подхода к формированию медицинской грамотности в начальном образовании.

Ключевые слова: медицинская грамотность, начальное образование, анализ учебников, контент-анализ, здоровый образ жизни, гигиена, питание, физическая активность, профилактика, междисциплинарная интеграция

ISSUES OF DEVELOPING MEDICAL LITERACY IN THE PRIMARY EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN

Arslonova Nazira Anvar's daughter <https://orcid.org/0009-0007-5594-071X>
e-mail: arslonbekarslonov4@gmail.com

«TURON ZARMED UNIVERSITET» (Kampus v Bukhare)
200117, Bukharskaya oblast', g. Bukhara, ul. Kayumy Murtazayeva, 13A telefon: +998 (97) 487-78-84 e-mail: info@zarmeduniver.com

✓ *Resume*

This study examines the representation of health literacy elements in the primary education system of Uzbekistan using content analysis. A total of 38 textbooks designed for grades 1–4 were analyzed as the research object. Health literacy components were assessed across the following domains: hygiene, nutrition, physical activity, and disease prevention. The findings indicate that although these elements are present in the textbooks, their quantitative distribution and content depth vary significantly across grade levels. Moreover, health literacy components are mainly presented within isolated topics, and the level of interdisciplinary integration remains low. Based on the results, the study highlights the need for a systematic and integrative approach to developing health literacy in primary education.

Keywords: health literacy, primary education, textbook analysis, content analysis, healthy lifestyle, hygiene, nutrition, physical activity, prevention, interdisciplinary integration

Dolzarbligi

Zamonaviy jamiyatda aholining sogʻligʻini saqlash va mustahkamlashda tibbiy savodxonlik muhim omillardan biri hisoblanadi. Tibbiy savodxonlik tushunchasi insonning sogʻlom turmush tarzi komponentlarini bilish, sogʻliq bilan bogʻliq maʼlumotlarni topish, tushunish va kundalik hayotda qoʻllay olish qobiliyatini ifodalaydi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, tibbiy savodxonlik darajasi past boʻlgan aholida kasalliklarning oldini olish, sogʻlom turmush tarziga amal qilish va tibbiy xizmatlardan samarali foydalanish koʻrsatkichlari sezilarli darajada past boʻladi. Bolalik davri, ayniqsa boshlangʻich taʼlim bosqichi, sogʻlom xulq-atvor va hayotiy koʻnikmalarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois koʻplab rivojlangan mamlakatlarda tibbiy savodxonlikni erta yoshdan boshlab shakllantirishga qaratilgan taʼlim strategiyalari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Bunda maktab taʼlimi tizimi, xususan darsliklar mazmuni asosiy vosita sifatida qaraladi.

Oʻzbekiston taʼlim tizimida ham soʻnggi yillarda oʻquv dasturlarini modernizatsiya qilish, sogʻlom turmush tarzini targʻib etish va yosh avlod salomatligini mustahkamlashga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, boshlangʻich taʼlim darsliklarida tibbiy savodxonlik elementlarining qamrovi, tizimliliigi va fanlararo integratsiyasi yetarli darajada oʻrganilmagan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi aynan boshlangʻich taʼlim tizimida tibbiy savodxonlikni shakllantirishning mavjud holatini kompleks baholash hamda uni takomillashtirish yoʻllarini aniqlash zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi — Oʻzbekiston boshlangʻich taʼlim darsliklarida tibbiy savodxonlik komponentlarini kontent tahlil asosida oʻrganish va ularni rivojlantirishga qaratilgan integrativ modelni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda Oʻzbekiston boshlangʻich taʼlim tizimida tibbiy savodxonlik elementlarining aks etish darajasini aniqlash maqsadida sifat va miqdoriy yondashuvlarni uygʻunlashtirgan kompleks metodologiya qoʻllanildi. Tadqiqot dizayni deskriptiv-tahliliy xarakterga ega boʻlib, asosiy usul sifatida kontent tahlil tanlandi.

Tadqiqot obyekti sifatida Oʻzbekiston Respublikasi umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 1–4-sinflari uchun tasdiqlangan darsliklar majmuasi olindi. Tahlilga quyidagi asosiy fanlar kiritildi: ona tili, oʻqish, tabiiy fanlar va tarbiya. Mazkur darsliklar oʻquvchilarning dastlabki bilim va koʻnikmalarini shakllantirishda asosiy manba hisoblanganligi sababli tanlab olindi.

Tahlil jarayonida kontent tahlil usulidan foydalanilib, darslik matnlari tizimli ravishda kodlashtirildi va baholandi. Tibbiy savodxonlikni aniqlash uchun quyidagi indikatorlar ishlab chiqildi: shaxsiy gigiyena,

to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik, kasalliklarning oldini olish, xavfsizlik qoidalarini hamda sog'lom turmush tarziga oid bilimlar. Har bir indikator bo'yicha darsliklarda uchraydigan matnlar, topshiriqlar va vizual materiallar alohida birlik sifatida qayd etildi. Ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida miqdoriy tahlil usullari qo'llanilib, har bir sinf va fan kesimida tibbiy savodxonlik elementlarining uchrash chastotasi va ulushi (%) hisoblab chiqildi. Olingan natijalar jadval va diagrammalar ko'rinishida tizimlashtirildi hamda taqqoslama tahlil asosida baholandi.

So'nggi yillarda tibbiy savodxonlik tushunchasi jamoat salomatligini ta'minlashda muhim determinant sifatida keng o'rganilmoqda. Ushbu konsepsiya Don Nutbeam tomonidan tizimlashtirilib, funksional, interaktiv va tanqidiy darajalarga ajratilgan [1]. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan tibbiy savodxonlik sog'liqni saqlash tizimi samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilgan [2]. Shu bilan birga, tibbiy savodxonlik darajasi past bo'lgan aholida sog'liq natijalari yomonlashishi ilmiy jihatdan asoslangan [3]. Ta'lim tizimida tibbiy savodxonlikni shakllantirish masalasi kompleks yondashuvni talab qiladi. Ilona Kickbusch va hammualliflar sog'liq savodxonligini rivojlantirishda ta'lim tizimining muhim rolini ta'kidlaydi [4].

Bolalar va o'smirlar orasida tibbiy savodxonlikni shakllantirish masalasi alohida e'tiborni talab qiladi. Jennifer A. Manganello tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda erta yoshdan boshlab sog'liq bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish muhimligi asoslab berilgan [5]. Maktab ta'limi doirasida sog'liq savodxonligini shakllantirish samaradorligi Leena Paakkari va Olli Paakkari tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular sog'liq savodxonligini ta'lim natijasi sifatida ko'rib chiqishni taklif etadi [6]. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar tibbiy savodxonlikni rivojlantirishda tizimli yondashuv va ijtimoiy omillarning ahamiyatini ko'rsatadi [7]. Bolalar salomatligi va rivojlanishi bo'yicha xalqaro hisobotlar [8] hamda maktablarda salomatlikni mustahkamlashning global standartlari [9] ham ushbu sohada strategik asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarziga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari orqali tibbiy savodxonlikni shakllantirish [10] bolalardagi surunkali rinosinusit kabi kasalliklarni erta aniqlash va o'z vaqtida mutaxassisga murojaat etish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik asos bo'lib xizmat qiladi [11].

Shu bilan birga, mavjud xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tibbiy savodxonlikni aynan boshlang'ich ta'lim darsliklari mazmuni orqali tizimli o'rganish bo'yicha tadqiqotlar cheklangan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, boshlang'ich ta'lim darsliklarida tibbiy savodxonlik komponentlarini kontent tahlil asosida baholash va ularni rivojlantirishning integrativ modelini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Natija va tahlillar

"Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarining yangi Milliy o'quv dasturi asosida nashr etilgan 1–4-sinf darsliklar majmuasi (jami 38 ta darslik) tanlab olindi [12]." O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimidagi 1–4-sinflar uchun mo'ljallangan darsliklar kontent tahlil asosida o'rganildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining 1-yildan 4-yilgacha bo'lgan o'quv davri davomida jami 2 924 ta mavzu/dars soati quyidagi 38 ta darslik (so'nggi nashrlar kesimida) tarkibiga singdirilgan.


Ushbu darsliklarning aksariyati yangi Milliy o'quv dasturi asosida integratsiyalashgan holda yaratilgan bo'lib, tibbiy savodxonlik elementlari ularning barchasida bir xil darajada aks etmagan.

1-jadval. Darsliklar kesimida taqsimot.

Sinf	Darsliklar soni	Darsliklar nomi (Asosiylari)
1-sinf	8 ta	Ona tili va o'qish savodxonligi (2 qism), Matematika (2 qism), Tabiiy fanlar (Science), Ingliz tili, Tarbiya, Musiqa, Texnologiya, Tasviriy san'at
2-sinf	10 ta	Ona tili va o'qish savodxonligi (2 qism), Matematika (2 qism), Tabiiy fanlar, Ingliz tili, Tarbiya, Informatika, Musiqa, Texnologiya, Tasviriy san'at, Jismoniy tarbiya
3-sinf	10 ta	Ona tili va o'qish savodxonligi (2 qism), Matematika (2 qism), Tabiiy fanlar, Ingliz tili, Tarbiya, Informatika, Musiqa, Texnologiya, Tasviriy san'at, Jismoniy tarbiya
4-sinf	10 ta	Ona tili va o'qish savodxonligi (2 qism), Matematika (2 qism), Tabiiy fanlar, Ingliz tili, Tarbiya, Informatika, Musiqa, Texnologiya, Tasviriy san'at, Jismoniy tarbiya

Jami 38 ta boshlang'ich ta'lim darsliklar majmuasining 2 924 ta mavzu/dars soati tahlil qilindi va ularning tarkibida jami 84 ta salomatlikka oid ma'lumotlar integratsiya qilingani aniqlandi. Tadqiqot obyekti sifatida o'rganayotgan 84 ta tibbiy-salomatlik mavzusi mana shu 38 ta darslikning ichida sochilgan holda berilgan. Bu esa ilmiy jihatdan quyidagi xulosalarni beradi:

1-diagramma



Ushbu darsliklar tizimli ravishda o'rganildi va salomatlikka oid mavzularning fanlararo integratsiyasi tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tibbiy savodxonlik elementlari barcha sinf darsliklarida mavjud bo'lsa-da, ularning miqdoriy ulushi va mazmuniy chuqurligi sinflar kesimida sezilarli farq qiladi.

O'zbekiston umumta'lim maktablarining 1-4-sinf darsliklarida tibbiy savodxonlikni rivojlantirishga oid o'quv mazmuni tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud integratsiya "deklarativ xarakterda" bo'lib, o'quvchilarda tibbiy-profilaktik tafakkurni shakllantirish uchun yetarli fundamental asosga ega emas.

Tahlil natijalariga ko'ra, tibbiy-salomatlik mavzulari aksariyat hollarda buyruq shaklida ("qo'lingni yuv", "toza bo'l", "tishlaringni yuv") berilgan. Ushbu yondashuvda kognitiv tushuntirish (nima uchun bu muhimligi, uning fiziologik mexanizmi, qoidalarga rioya qilmaslik oqibatlari) yetishmaydi.

Fanlararo integratsiyani o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Tabiiy fanlar: Tibbiy tushunchalarning sathi juda yuzaki. Organizm a'zolari haqida ma'lumot berilsa-da, ularning patofiziologik holatlari va atrof-muhit bilan o'zaro bog'liqligi (kasalliklar etiologiyasi) deyarli yoritilmagan.

Tarbiya: "Tozalik" tushunchasi axloqiy-estetik nuqtai nazardan talqin qilinadi, lekin uning sanitar-gigiyenik ahamiyati va profilaktik salohiyati (epidemiologik xavfsizlik) ochiq qolmoqda.

Ona tili: Matnlar asosan badiiy-tarbiyaviy xarakterda. Tibbiy terminologiya (simptom, immunitet, profilaktika) esa tizimli ravishda emas, balki tasodifiy leksik birliklar sifatida uchraydi.

O'quv dasturidagi mavjud 84 ta mavzu (jami soatlarning 2.87%) miqdoriy jihatdan mavjud bo'lsa-da, ularning sifat ko'rsatkichi tibbiy savodxonlik standartlariga javob bermaydi. Boshlang'ich sinf darsliklaridagi tibbiy integratsiya "axborotli xarakter"dan "tushuntiruvchi-tahliliy xarakter"ga o'tishi shart. O'quvchilarga "nima qilish kerak"ni emas, "nima uchun va qanday ta'sir ko'rsatadi"ni o'rgatuvchi metodik yondashuv — zamonaviy maktabning ustuvor vazifasi bo'lishi lozim.

O'zbekiston boshlang'ich ta'lim maktablarining 1–4-sinflari uchun mo'ljallangan darsliklar kontent tahlili natijasida tibbiy savodxonlik elementlari to'rtta asosiy yo'nalish doirasida aks etishi aniqlandi: shaxsiy gigiyena, sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, kasalliklarning oldini olish to'g'risidadir.

2-jadval.

Boshlang'ich sinf darsliklarida tibbiy savodxonlik komponentlarining taqsimoti (ekstensiv ko'rsatgich)

	Shaxsiy gigiyena	To'g'ri ovqatlanish	Jismoniy faollik	Profilaktika	Jami (Sinf ulushu)
1-sinf	12%	5%	4%	2%	23%
2-sinf	10%	4%	3%	4%	21%
3-sinf	8%	6%	4%	7%	25%
4-sinf	5%	5%	3%	18%	31%
Jami:	35%	20%	14%	31%	100%

Jadval ko'rsatkichlari 84 ta tibbiy-salomatlik mavzusining sinflar va yo'nalishlar kesimida o'ziga xos tarzda taqsimlanganini ko'rsatadi. Ushbu statistik ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

-Mavzular dinamikasidagi nomutanosiblik: 1-2-sinflarda asosiy urg'u shaxsiy gigiyenaga (12-10%) qaratilgan bo'lsa, 4-sinfga kelib "Kasalliklar profilaktikasi" (18%) keskin oshgan. Ushbu yo'nalishning birdaniga ko'payishi o'quvchilarga profilaktik bilimlarni quyi sinflardan boshlab bosqichma-bosqich singdirish zaruratini ko'rsatadi.

-Ayrim yo'nalishlarning past ulushi: Sog'lom turmush tarzining muhim omillari bo'lgan "Jismoniy faollik" (umumiy 14%) va "To'g'ri ovqatlanish" (20%) darsliklarda nisbatan kam ko'rsatkichda qolgan va sinflararo deyarli o'smagan.

-Uzviylikni ta'minlash ehtiyoji: Tibbiy bilimlarning turli sinflarda farqli intensivlikda berilishi darsliklar o'rtasidagi gorizonttal va vertikal integratsiyani kuchaytirishni talab etadi.

Boshlang'ich sinf darsliklarida salomatlikka oid bazaviy ma'lumotlar qamrab olingan. Biroq ularni fanlar va sinflar kesimida yanada mutanosib (proporsional) taqsimlash hamda o'zaro mantiqiy uzviyligini ta'minlash o'quvchilarda yaxlit tibbiy savodxonlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim darsliklarida tibbiy savodxonlik elementlari mavjud bo'lsa-da, ular yetarlicha tizimlashtirilmagan va fanlararo integratsiya darajasi past. Bu holat o'quvchilarda funksional sog'liq savodxonligining to'liq shakllanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, darsliklarda eng ko'p uchraydigan komponent shaxsiy gigiyena bo'lib, u asosan qo'l yuvish, tish parvarishi va umumiy tozalik qoidalari orqali ifodalangan. Sog'lom ovqatlanish bo'yicha mavzular o'quvchilarga to'g'ri ovqat tanlash va ovqatlanish tartibi haqida boshlang'ich bilimlarni shakllantirishga qaratilgan. Jismoniy faollik bilan bog'liq mazmun esa asosan badantarbiya, harakatli o'yinlar va sportga oid tavsiyalar ko'rinishida berilgan. Kasalliklarning oldini olishga oid mavzular nisbatan kam uchraydi va asosan gigiyenik odatlar orqali bilvosita ifodalangan.

Umuman olganda, tahlil qilingan darsliklarda tibbiy savodxonlik elementlari mavjud bo'lsa-da, ular fanlararo integratsiyalashmagan va asosan alohida mavzular shaklida berilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nutbeam D. Health literacy as a public health goal: a challenge for contemporary health education and communication strategies. *Health Promot Int.* 2000;15(3):259–267. doi:10.1093/heapro/15.3.259.
2. World Health Organization. Health literacy: the solid facts. Copenhagen: WHO Regional Office for Europe; 2013. 73 p.
3. Berkman ND, Sheridan SL, Donahue KE, Halpern DJ, Crotty K. Low health literacy and health outcomes: an updated systematic review. *Ann Intern Med.* 2011;155(2):97–107. doi:10.7326/0003-4819-155-2-201107190-00005.
4. Kickbusch I, Pelikan JM, Apfel F, Tsouros AD. Health literacy: the solid facts. Copenhagen: WHO Regional Office for Europe; 2013. 66 p.

5. Manganello JA. Health literacy and adolescents: a framework and agenda for future research. *Pediatrics*. 2008;122(Suppl 3):S173–S177. doi:10.1542/peds.2008-1583H.
6. Paakkari L, Paakkari O. Health literacy as a learning outcome in schools. *Health Educ*. 2012;112(2):133–152. doi:10.1108/09654281211203485.
7. Nutbeam D, Lloyd JE. Understanding and responding to health literacy as a social determinant of health. *Int J Environ Res Public Health*. 2021;18(21):11145. doi:10.3390/ijerph182111145.
8. UNICEF. Child health and development reports. New York: UNICEF; 2021–2023. Available from: <https://www.unicef.org>
9. World Health Organization. Global standards for health promoting schools. Geneva: World Health Organization; 2021. Available from: <https://www.who.int>
10. Arslonova NA, Shodiyeva MB. Sog'lom turmush tarziga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tibbiy savodxonlikni shakllantirish. *PEDAGOG*. 2025;8(11):67–72.
11. Шодиева МБ, Нуров УИ. Диагностика и лечение хронического риносинусита у детей школьного возраста. *Eurasian Journal of Otorhinolaryngology - Head and Neck Surgery*. 2024;3:57–61. doi:10.57231/j.ejohns.2024.3.1.008.
12. O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1–4-sinflari uchun darsliklar va o'quv-metodik majmualari to'plami (38 nomda). Toshkent: Respublika ta'lim markazi; 2023–2024.

Qabul qilingan sana 20.05.2026